



**QASHQADARYO VILOYATI  
STATISTIKA BOSHQARMASI**

# **QASHQADARYO VILOYATIDA QURILISH ISHLARI**

**2023- YIL  
YANVAR-FEVRAL**

2023- yilning yanvar-fevral oylarida, Qashqadaryo viloyatida jami **809,4** mlrd. soʻmlik qurilish ishlari bajarilib, oʻsish surʼati 2022- yilning yanvar-fevral oylariga nisbatan **83,2** % ni tashkil etdi.



## Qurilish ishlari hajmining tarkibi, % da


Qurilish ishlari hajmi yirik qurilish tashkilotlari, kichik korxonalar va mikrofirmalar hamda norasmiy sektorlarda amalga oshirilgan ishlar tarkibi boʻyicha shakllanadi.




# 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra qurilish ishlari bo'yicha faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar, birlikda



## Yillar kesimida soni



## Hududlar kesimida



2007

Bino va inshootlar qurish

367

Fuqarolik obyektlarini qurish

685

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari

Qurilish sohasi mamlakatimiz milliy iqtisodiyotining barqaror o'sishiga o'zining munosib hissasini qo'shib kelayotgan sohalardan hisoblanadi. Ushbu sohada faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlarning soni 2019- yil bilan solishtirganda o'sish sur'ati 112,4 foizga oshgan.

Qurilish sohasida faoliyat ko'rsatayotgan korxonalar va tashkilotlar soni ushbu sohaning quydagi yo'nalishlari kesimida qaralganda;

binolar va inshootlar qurilish yo'nalishi 65,6 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 89,1% ni tashkil etgan;


fuqarolik obyektlarini qurish yo'nalishi 12,0 foiz ulushi tashkil etib, o'sish sur'ati 2022- yilga nisbatan 126,6 foizga oshgan;

ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari yo'nalishi 22,4 foiz ulushni tashkil etib, 80,7 foizni tashkil etgan.



## Hududlar kesimida qurilish faoliyati bilan shug'ullanayotgan korxonalar va tashkilotlar to'g'risida ma'lumotlar, *birlikda*

	Holatiga :		o'tgan yilga nisbatan, % da
	01.03.2022- y.	01.03.2023- y.	
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>3392</b>	<b>3059</b>	<b>90,2</b>
<b>shaharlar:</b>			
Qarshi sh.	886	897	101,2
Shahrisabz sh.	143	147	102,8
<b>tumanlar:</b>			
G'uzor	145	132	91,0
Dehqonobod	151	130	86,1
Qamashi	167	136	81,4
Qarshi	380	295	77,6
Koson	308	258	83,8
Kitob	126	125	99,2
Mirishkor	85	94	110,6
Muborak	179	138	77,1
Nishon	123	102	82,9
Kasbi	159	135	84,9
Ko'kdala	0	34	0
Chiroqchi	212	145	68,4
Shahrisabz	112	107	95,5
Yakkabog'	216	184	85,2



# 2023- yil 1- mart holatiga ko'ra Qashqadaryo viloyatida faoliyat ko'rsatayotgan qurilish korxonalari ulushi, % da




Qarshi sh. (29,4)



Qarshi (9,6)



Koson (8,4)



## Qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylari uchun

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	Shu jumladan:		
		Yirik qurilish tashkilotlari	Kichik va mikrofirmalar	Norasmiy sektor
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>323,5</b>	<b>149,0</b>	<b>439,9</b>	<b>220,6</b>
<i>shaharlar:</i>				
Qarshi sh.	258,9	101,5	134,3	23,1
Shahrisabz sh.	38,1	16,3	16,1	5,7
<i>tumanlar:</i>				
G'uzor	58,1	3,8	36,9	17,4
Dehqonobod	22,8	0,0	6,0	16,8
Qamashi	17,5	0,0	9,8	7,7
Qarshi	65,2	0,1	52,6	12,5
Koson	53,6	2,4	33,2	18,0
Kitob	57,2	0,6	35,8	20,8
Mirishkor	22,4	0,0	7,6	14,8
Muborak	32,3	7,1	13,6	11,6
Nishon	32,9	1,0	26,5	5,4
Kasbi	26,7	0,0	10,3	16,4
Ko'kdala	10,9	0,0	1,2	9,7
Chiroqchi	51,0	12,5	24,6	13,9
Shahrisabz	21,4	0,0	11,7	9,7
Yakkabog'	40,6	3,6	19,8	17,2

\* Hududlar bo'yicha taqsimlanmaydigan hajmni qo'shgan holda




2023- yilning yanvar-fevral oylarida, jami qurilish ishlari hajmi tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmi 149,0 mlrd. so'mni tashkil etdi. Qurilish ishlari 2022- yilga nisbatan 136,0 % ni tashkil etib, jami qurilish ishlari hajmidagi ulushi 2022- yildagi ko'rsatkich darajasidan 7,2 % punktga ko'payib, 18,4 % ni tashkil etdi.


# Qurilish ishlari

## 2023- yil yanvar-fevral oylari uchun



**Pudratchi** – kapital qurilish uchun pudrat shartnomasi asosida bino va inshootlarni qurish bo‘yicha qurilish-montaj, qayta ta‘mirlash, kapital ta‘mirlash hamda texnologik va boshqa uskunalarni montaj qilish, sozlash va boshqa pudrat ishlarini bajarish bilan shug‘ullanadi.





**MA'LUMOT UCHUN:** yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlarining jami qurilish ishlari hajmidagi eng ko'p ulushi Shahrisabz shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 42,9 % i yoki 2022- yilga nisbatan 211,4 %ni tashkil qildi), Qarshi shahri (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 39,2 % i yoki 2022- yilga nisbatan 148,6% ga ko'paydi) va Chiroqchi tumani (hududdagi jami qurilish ishlari hajmining 24,5 % i yoki 2022- yiliga nisbatan 101,6 % ga ko'paydi) ga to'g'ri keldi.

# Kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari



2023- yilning yanvar-fevral oylarida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hissasiga jami qurilish ishlari hajmining 54,4 % i to'g'ri kelib, 2022- yil ko'rsatkichiga nisbatan 8,5 % punktga kamaydi. Shuningdek, ular hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari hajmi 2022- yilga nisbatan 71,9 % ni tashkil etgan holda 439,9 mlrd. so'm miqdorida qayd etildi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar, ulushi, % da



54,4

2023- yil  
Yanvar-fevral

62,9

2022- yil  
Yanvar-fevral




**MA'LUMOT UCHUN:** joriy hisobot davrida kichik korxonalar va mikrofirmalar tomonidan eng yuqori ulush ko'rsatkichi Qarshi shahri (134,3 mlrd. so'm yoki umumiy hajmga nisbatan 51,9 %), Qarshi tumani (52,6 mlrd. so'm yoki 80,8 %), G'uzor tumani (36,9 mlrd. so'm yoki 63,6 %) ga to'g'ri keldi.



## Qurilish ishlarining umumiy hajmida norasmiy sektor

Norasmiy sektor hissasiga to'g'ri kelgan qurilish ishlari ulushi **27,3 %** ni tashkil etdi yoki **220,6 mlrd. so'm** miqdorida qayd etildi. 2022- yilga nisbatan **87,9 %** ni tashkil etdi.



### Mulkchilik shakli davlat va nodavlat bo'lgan tashkilotlar tomonidan bajarilgan qurilish ishlari, ulushi foizda

Davlat mulkchiligidagi tashkilotlar tomonidan jami **42,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Nodavlat mulkchilikdagi tashkilotlar tomonidan esa **766,7 mlrd. so'm** qurilish ishlari bajarildi. Ularning viloyatdagi ulushi mos ravishda **5,3 %** va **94,7 %** ni tashkil etdi.

2022- yil yanvar-fevral



Davlat mulki

2023- yil yanvar-fevral



Nodavlat mulk

# Mulkchilik shakllari bo'yicha bajarilgan qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oylarida



	Qurilish ishlari, mlrd so'm	Davlat mulki		Nodavlat mulk	
		mlrd. so'm	ulushi, % da	mlrd.so'm	ulushi,% da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>809,4</b>	<b>42,8</b>	<b>5,3</b>	<b>766,6</b>	<b>94,7</b>
<i>shaharlar:</i>					
<b>Qarshi sh.</b>	258,9	42,8	16,5	216,1	83,5
<b>Shahrisabz sh.</b>	38,1			38,1	100
<i>tumanlar:</i>					
<b>G'uzor</b>	58,1			58,1	100
<b>Dehqonobod</b>	22,8			22,8	100
<b>Qamashi</b>	17,5			17,5	100
<b>Qarshi</b>	65,2			65,2	100
<b>Koson</b>	53,6			53,6	100
<b>Kitob</b>	57,2			57,2	100
<b>Mirishkor</b>	22,4			22,4	100
<b>Muborak</b>	32,3			32,3	100
<b>Nishon</b>	32,9			32,9	100
<b>Kasbi</b>	26,7			26,7	100
<b>Ko'kdala</b>	10,9			10,9	100
<b>Chiroqchi</b>	51,0			51,0	100
<b>Shahrisabz</b>	21,4			21,4	100
<b>Yakkabog'</b>	40,6			40,6	100



**Umumiy hajmdan yangi qurilish,  
rekonstruksiya, kengaytirish,  
texnik qayta quollantirish ishlari ulushi  
2023- yil yanvar-fevral oyida**



Bajarilgan qurilish ishlarining katta qismi yangi bino va inshootlarni qurishga tegishli. Jami qurilish ishlarining **61,4 %** i yoki **497,2** mlrd. soʻm qurilish ishlari aynan iqtisodiyotda yangi ishlab chiqarish quvvatlari, turar-joy va boshqa ijtimoiy obyektlarni yaratishga qaratilgan.

**11,5 %**

Yirik qurilish tashkilotlari boʻyicha yangi qurilish hisobidan **57,2** mlrd. soʻmlik ishlar bajarildi yoki jami yirik qurilish tashkilotlarining yangi qurilish ishlaridagi ulushi **11,5 %** ni tashkil etdi.

Kichik korxonalar va mikrofirmalar boʻyicha yangi qurilish hisobidan **233,4** mlrd. soʻm yoki jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning yangi qurilish ishlaridagi ulushi **46,9 %** ni tashkil etdi.

**46,9 %**

**41,6 %**

Yangi qurilish ishlari hajmida norasmiy sektor hissasi 206,6 mlrd. soʻm yoki ularning jamiga nisbatan ulushi **41,6 %** ni tashkil etdi.




# Hududlar kesimida qurilish ishlari 2023- yil yanvar-fevral oyida

	Qurilish ishlari, mlrd. so'm	O'sish sur'ati, % da	Umumiy hajmga nisbatan,% da
<b>Qashqadaryo viloyati</b>	<b>323,5</b>	<b>83,2</b>	<b>100,0</b>
<i>shaharlar:</i>			
Qarshi sh.	258,9	88,4	32,4
Shahrisabz sh.	38,1	82,2	3,7
<i>tumanlar:</i>			
G'uzor	58,1	67,3	8,5
Dehqonobod	22,8	77,2	3,7
Qamashi	17,5	75,1	2,5
Qarshi	65,2	79,0	8,8
Koson	53,6	82,4	6,8
Kitob	57,2	85,3	6,5
Mirishkor	22,4	94,2	2,9
Muborak	32,3	80,7	4,1
Nishon	32,9	95,0	2,5
Kasbi	26,7	90,6	3,5
Ko'kdala	10,9	94,5	1,6
Chiroqchi	51,0	72,3	5,1
Shahrisabz	21,4	81,1	2,7
Yakkabog'	40,6	93,9	4,6



**Ma'lumot uchun:** Yangi qurilish – yangi quvvatlarni yaratish maqsadida, yangi hududlarda amalga oshiriladigan asosiy, yordamchi va xizmat ko'rsatish maqsadlari uchun obyektlar (bino va inshootlar) kompleksini qurish.



**Ma'lumot uchun:** Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha qurilish ishlarining asosiy qismi qurilish, turar joy va yashash uchun mo'ljallangan hamda yashash uchun mo'ljallanmagan binolar qurish bo'yicha amalga oshirilgan qurilish ishlaridan tashkil topdi.

ulushi % da



Bino va inshootlarni qurish bo'yicha qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari ulushi 2,7 % ni tashkil etib, 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 0,1 % punktga ko'paydi.


Ushbu faoliyat turida kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelgan ulush 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,5 % punktga kamayib, 59,0 % ni tashkil etdi.

Norasmiy sektorning ulushi esa 2022- yildagi ko'rsatkichga nisbatan 6,4% punktga ko'payib, 38,3 % ni tashkil etdi.

Fuqarolik obyektlarini qurish bo'yicha yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 22,6 % ni tashkil etdi va 2022- yilga nisbatan 5,3 % punktga ko'paydi.

Shuningdek, kichik korxonalar va mikrofirmalar ulushi mos ravishda 77,4 % (5,3 % punktga kamaydi).

ulushi % da



Yirik qurilish tashkilotlari




Kichik korxonalar va mikrofirmalar



Norasmiy sektor

2022- yil  
yanvar-fevral



2023- yil  
yanvar-fevral

Ixtisoslashtirilgan qurilish ishlari tarkibida yirik qurilish tashkilotlari tomonidan bajarilgan qurilish ishlari hajmining ulushi 2022- yilga nisbatan 22,1 % punktga ko'paydi va 72,9 % ni tashkil etdi. Qolgan 27,1 % i kichik korxonalar va mikrofirmalar hissasiga to'g'ri kelib, 2022- yilga nisbatan 22,1 % punktga kamaydi.

